



KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA “TEMUR TUZUKLARI” ASARINING AHAMIYATI

Rajabov O'tkirjon Xursanaliyevich

mustaqil izlanuvchi, Farg'onan davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada “Temur tuzuklari” asarida konsensus tamoyilini qo'llanilishi va uning madaniyat shaklida namoyon bo'lishi tahlil etilgan. Konsensus madaniyatida tayanch bo'lgan maslahat omilining asarda talqin etilishi va qat'iy qaror qabul qilish jarayonidagi o'rni ijtimoiy-falsafiy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: “Temur tuzuklari”, konsensus, maslahat, qat'iy qaror qabul qilish, adolat, murosa, hamjihatlik, tadbirkorlik, hushyorlik.

Аннотация: В статье анализируется применение принципа консенсуса и его проявление в форме культуры в произведении «Конституции Темура». В социально-философском аспекте освещены трактовка фактора консультации, являющегося основой культуры консенсуса, и его роль в процессе принятия твердого решения.

Abstract: The article analyzes the application of the principle of consensus and its manifestation in the form of culture in the work "Temur's Constitutions". The interpretation of the consultation factor, which is the basis of the culture of consensus, and its role in the process of making a firm decision are highlighted in the socio-philosophical aspect.

Keywords: "Temur rules", consensus, consultation, firm decision-making, justice, compromise, solidarity, entrepreneurship, vigilance.

Buyuk davlat arbobi va sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi Amir Temur tomonidan yozilgan “Temur tuzuklari” asari nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-siyosiy madaniyat tahlil etilgan muhim manba hisoblanadi. Jumladan, asarning birinchi qismida jahon tarixida mashhur fotih, sarkarda va iste'dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati bayon etilgan.

Asarning ikkinchi qismida jahongirning nomidan aytilgan va uning toju taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida gap boradi. [1]

Asarda davlatning tinchligini mustahkamlash, fuqarolar o'rtasida o'zaro hamjihatlikni qaror toptirish, shuningdek insonning komil inson sifatida shakllanishiga oid muhim manba hisoblanadi. Asarda yana bir muhim jihat mayjud bo'lib, u fuqarolar o'rtasida murosa madaniyati, qat'iyatlilik, boshqa xal, millat va fuqarolarni hurmat

qilish hamda eng asosiysi insonlar o'rtasida asosiy munosabatlardan biri bo'lgan – kengashish, maslahatlashish kabi ijtimoiy hodisalar tahlil etilgan. Kengashish, maslahatlashish – konsensus tamoyilining tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Ma'lumki, konsensus - fikrlarning, hukmlarning birligi, odamlarning o'zaro rozilagini anglatuvchi tushuncha bo'lib, [2] umumiyliz rozilik asosida qaror qabul qilish usuli sifatida keng qo'llaniladi. Konsensus - bu murosaga kelish yoki yakdillik emas, eng yaxshi g'oyalar va har bir a'zoning asosiy sharhlarini hisobga olishdir. [3] Konsensus madaniyatiga erishish uchun jamiyat a'zolari dolzarb muammoni topib jamiyatga taqdim eta olishi va yechimi bo'yicha taklif bildirishi, shuningdek mazkur taklif asosida kelajak rejalarini bayon eta olishi, o'z taklifini taraqqiyotga hissa qo'sha olishiga boshqa jamiyat a'zolarini ishontira olishi, do'stona maslahatlar bera olishi, muammoni yechimida ilgari surilgan takliflarga loqayd va betaraflar sonini kamaytirishi hamda eng asosiysi barchaning roziligidagi erishishi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Temur tuzuklari” asarini “Tadbirlar va kengashlar” deb nomlangan birinchi qismida Amir Temur quyidagi ma'lumotni keltiradi. “Pirim Zayniddin Abubakr Toybodiy menga yozmishlarkim, “Abulmansur Temur, saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat'iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyyotkorlik.

Konsensus (kelishish) jarayonida yuqorida keltirilgan jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, konsensusning birinchi bosqichi bahs-munozara, keyingi bosqichlarida tomonlarning fikrini eshitish, barchaga kerakli ma'lumotlarni ochiqlik va oshkorlik orqali yetkazish, takliflarni hisobga olish, muhokamaga barcha ishtirokchilarni jalg etish, rozilikka erishish uchun tomonlarning pozitsiyalarini tekshirish, qarorni haqiqatga aylantirish kabi jarayon turadi.

Asarda keltirilgan quyidagi xulosani tahlil qilamiz: “Tajribamda ko'rilmankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, mingminglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”. Konsensus jarayonida faol tinglash, umumlashtirish, sintez, taklifga rozi bo'lish yoki rozi bo'lmashlik kabi muhim komponentlar mavjud bo'lib, kelishuvda natijadorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ishbilarmonlik – turli jarayonda muammoga yechim topish va insonning tashabbus va faollik bilan vaziyatdan chiqish usuliga nisbatan qo'llaniladi. Qat'iyatlilik esa konsensusda qarorlarni tez va sifatli qabul qilishda muhim hisoblangan sifatdir. Insonlarda ishbilarmonlik sifati boshqa sifatlarining tayanchi sifatida talqin etilmoqda.

Amir Temur asarda “Ishlarimning barini kengash bilan yurgizib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'yar edim. Uni to'g'ri tadbir, qat'iy jazm, chinlik-chidamlilik ko'rsatib, ehtiyyotkorlik bilan uzoqni ko'rib, ortini o'ylagan holda oxiriga yetkazardim” deya ta'kidlaydi. [4]

Asarda bayon etilgan sifatlar va tadbir qo'llash jarayonini tahlil etib, konsensus tamoyilining muhim qismlari asarda o'z aksini topganini ko'rishimiz mumkin.

Konsensus teng tomonlar o'rtasidagi hurmatli muloqotga asoslanadi. U bir-birini yoqlab yoki qarshi emas, balki bir-birlari bilan ishlashni maqsad qiladi. Asarda mana shu konsensusda qo'llaniladigan hurmatli muloqot to'g'risida ham ma'lumot berilgan. Jumladan, "Qaysi kishi aqlga siqqan bir ishni kuyinib gapirsa, suyib eshitar edim. Kimki oqilona xaplarni erlarcha keskinlik bilan so'zlasa, unga ham quloq solardim. Har kimdan so'z olib kengash so'rар edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'ini tanlab olardim."

Demak, konsensusning hurmatli muloqot mexanizmi – suyib eshitish, quloq tutish, kengash so'rash, eng to'g'ri maslahatni tanlash kabi shaklda talqin etiladi.

Asarda ta'kidlangan keyingi ma'lumotda ham Amir Temurning konsensus tamoyilini qo'lllash jarayoni yaqqol namoyon bo'ladi. "Agar [g'anim ustiga] lashkar tortmoqchi bo'lsam, urush-yarashdan o'rta ga so'z tashlab, amirlarim ko'ngillarining bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so'z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko'rardim, agar urushga moyil bo'lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko'rardim, qaysi biri foydaliroq bo'lsa, shuni ixtiyor qilardim".

Konsensus madaniyatida tomonlarni qiziqtirish, tinglash, yo'naltirish, axborot berish va qabul qilish, axborotni taqqoslash va solishtirish, eng ma'qul holat bo'yicha qaror qabul qilish kabi qoidalar asosiy o'rinda turishini hisobga oladigan bo'lsak, "Temur tuzuklari" asari ushbu qoidalar tahlil etilgan muhim tarixiy asar hisoblanadi.

Asarning ikkinchi qismida davlatni boshqarish va idora etishda 12 ta tuzuk bayon etiladi. Uchinchi tuzukda konsensus madaniyatining ko'rinishlari yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, "uchinchisi shuldirki, maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va hushyorlik-ehtiyotkorlik bilan g'anim qo'shinlarini yengib, mamlakatlarni o'zimga bo'ysundirdim. Saltanatim ishlarini murosayu madora, muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizdim. Ko'p narsani bilib tursam ham o'zimni bilmaslikka olardim. Do'stu dushman bilan murosayu madora qildim". Ushbu tuzukni ro'yobini Amir Temur 1365-1370-yillarda davlat tuzish borasidagi eng katta muammo ya'ni Movarounnahrni mo'g'ullar zulmidan butunlay xalos etish, ular bilan murosa qilishdan boshlaganida ham ko'rishimiz mumkin. [5]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Temur tuzuklari" asari jamiyatda murosa madaniyatini shakllantirish mexanizmlari va uni amalga oshirishning dolzarb qoidalari to'g'risida ma'lumot beruvchi muhim tarixiy asardir.

Konsensus madaniyati tarkibidagi faollik, tashabbuskorlik, ochiqlik va oshkorlik, milliy qadriyatlarga asoslangan hurmat, tomonlarning roziligiga erishish kabi komponentlarni tarixiy shakllarini "Temur tuzuklari" asaridan olishimiz mumkin. Amir Temurning "Yana mening tajribamdan o'tmishkim, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengashu tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir" degan so'zlarida konsensus madaniyatini shakllantirishda dolzarb omil bo'lgan maslahatlashish omili ko'rsatib o'tiladi.

Bugun biz Uchinchi renessansni bonyod etish va “Yangi O’zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini joriy etishda Amir Temur ta’kidlagan 12 toifadagi kishilar bilan maslahatlashishimiz va buni kundalik hayotimizda qoidaga aylantirishimiz kerak.

Bugungi Yangi O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda faollik, tashabbuskorlik, oshkorlik, “Inson qadri”ni yuksaltirish kabi tamoyillarni to‘liq joriy etishimizda konsensus madaniyatini shakllantirish dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. “Temur tuzuklari”. “Temur tuzuklari” haqida ikki og‘iz so‘z. B.Ahmedov. – T.: O‘zbekiston. 2019. – 3-bet.
2. Seeds for Change. Настольная книга по консенсусу Как построить эффективную работу в группе, учитывая мнение каждого участника. Радикальная теория и практика. Москва | 2014. Стр.- 8.
3. В.А. Канке. Философия науки краткий энциклопедический словарь. Издательство “Омега-Л”. Москва, 2008 год. Стр.-113.
4. “Temur tuzuklari”.– Т.: O‘zbekiston. 2019. – 16-bet.
5. Z.Muqimov. “Amir Temur tuzuklari”. S.: SamDU, 2008. – 19-bet.
6. Rajabov O‘.X. (2021). Yangi O’zbekistonda konsensus madaniyatini shakllantirishning dolzarbliji. O‘zMU xabarlari. № 1/6. - 168-171.